

## BUGUNGI MAQOM CHOLG`U IJROCHILIGIDA, TURG`UN ALIMATOV MAKTABINING AHAMIYATI: DUTOR MISOLIDA

Yuldosheva Feruza Dilmurod qizi

Yunus Rajabiy nomidagi O`zbek milliy musiqa san`ati instituti

“Maqom xonandaligi” kafedrası o`qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21919137>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O`zbek miliy musiqa san`ati, xususan maqomlar ijrochiligi tarixi va rivojlanishida eng muhim yo`nalishlardan biri bo`lgan cholg`u ijrochili haqida so`z boradi. Ma`lumki, cholg`u ijrochiligi tarixi juda ham uzoq o`tmishga borib taqaladi. Cholg`u ijrochiligi xususan dutor ijrochiligi an`anasi maqom ijrochiligi an`anasi silsilasi bilan chambarchas holda bizning kunimizga qadar yashab kelmoqda. Uning bunday umrboqiyligiga sabab ustozlarning o`z ijodlarida xalq og`zaki ijodi va xususan maqomlarga uzviy bog`liq holda ijod etishlaridir. Mazkur maqolada aynan O`zbek maqom san`atida eng o`zak omil sifatida avloddan avlodga o`tib, o`ziga xos shakl va rivojlanishga ega bo`lgan ustozlar ijro maktabining maqom cholg`u ijrochiligidagi o`rni borasida O`bekiston xalq artisti Turgu`n Alimatovning dutor ijrochiligi orqali yoritib berilgan.

**Аннотация:** В этой статье рассказывается об одном из самых важных направлений в истории и развитии Узбекского национального музыкального искусства, в частности, инструментального исполнение. Как известно, история инструментального исполнение уходит в далекое прошлое. Традиция исполнения дутара тесно связана с традицией исполнения макома и продолжает существовать до наших дней. Причина такой продолжительности его жизни заключается в том, что мастера в своем творчестве неразрывно связаны с устным народным творчеством и, в частности, макомами. В данной статье освещена роль исполнительской школы мастеров, которая, являясь важнейшим фактором в узбекском искусстве макома, передаваясь из поколения в поколение, приобретая своеобразные формы и развитие, в инструментального исполнениемакома народного артиста Узбекистана Тургуна Алиматова.

O`zbek xalqining musiqa madaniyati, xususan cholg`u ijrochiligi san`ati juda uzoq tarixga ega. Tarixiy taraqqiyot davomida xalq mumtoz musiqasi, maqom san`ati, cholg`u ijrochiligi yo`llari, shuningdek, folklor - havaskorlik musiqiy merosi singari shaklan va usluban bir-biriga yaqin ijrochilik ko`rinishlari bir-birini to`ldirib keldi. Ushbu musiqiy merosimiz bugungi kunimizda ham ma'naviy madaniyatimizning bir bo`lagi sifatida namoyon bo`lmoqda. Bugungi kunda yurtimizda milliy-ma'naviy qadriyatlarimizga, urf-odatlarimizga, unutilayozgan, tarixan qadrli an`analarimizga bo`lgan e`tibor, ularni yangidan isloh etish jarayoni ustivor yo`nalish kasb etdi. Milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz, ma'naviy boyligimizga bo`lgan e`tibor davlat miqyosiga ko`tarildi. Hozirda ota-bobolarimizdan, ajdodlarimizdan qolgan ma'naviy boyliklarni, jumladan, musiqiy madaniyatni avaylab asrash, tiklash borasida, qolaversa, zamon bilan hamohang qadam tashlash borasida talaygina ishlar qilinmoqda. Bu borada o`tgan ajdodlarimiz bizlarga meros qilib qoldirib ketgan ulkan ma'naviy boyligimiz asosiy omil bo`lib xizmat qilmoqda. “Adabiyot va san`at, madaniyatni rivojlantirish - xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir” mavzusida Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning davlatimiz ziyolilari bilan uchirashuvida: madaniyatimiz va san'atimizni rivojlanish hamda bu boradagi ijobiy tendensiyalar bilan birga, ayrim salbiy holatlar, ularning jamiyat hayotidagi ta'sirini xolisona va tanqidiy baholab, o`z yechimini kutayotgan dolzarb muammolar va ularni

bartaraf etish. Ijodiy uyushmalar, Madaniyat vazirligi hamda uning tarkibidagi birlashma va tashkilotlar faoliyatini chuqur tahlil etib, ijodkor ziyolilarning bugungi kunda jamiyat hayoti, islohotlar jarayonidagi oʻrni va vazifasini oshirish deb taʼkidlab oʻtdilar. Mustaqillik taraqqiyoti yillarida toʻplangan tajriba, dunyoqarash jamoatchiligi Yangi Oʻzbekiston deya eʼtirof etgan oʻzimizga mos taraqqiyot yoʻli-kelajagi buyuk davlat barpo etish borasida amalga oshirilayotgan barcha tarixiy oʻzgarish va yangiliklar xalqimiz qalbi ongi va gʻururiga ulkan taʼsir koʻrsatmoqda. Shu taʼsirlar natijasi oʻlaroq Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Madaniyat va sanʼat sohasining jamiyat hayotidagi oʻrni va taʼsirini yanada oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida” 2020-yil 26-maydagi PF-6000-son [Farmoniga](#) muvofiq Oʻzbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tizimida Yunus Rajabiy nomidagi Oʻzbek milliy musiqa sanʼati instituti tashkil etildi. Tarixdan maʼlum, maʼnaviyatimizning asosiy boʻgʻini boʻlgan musiqiy madaniyatimiz, maqom cholgʻu ijrochiligi hamisha xalqimizning kundalik hayotida maʼnaviy ozuqa sifatida eʼtirof etib kelingan. Xalq ogʻir kunlarida musiqadan najot izlagan, xursandchilik kunlarida ham qoʻshiq va musiqa ularga hamroh boʻlgan. Zero, bugungi muborak kunlarimizda, oʻzligimizni anglab borayotgan bir davrda ulkan maʼnaviyatimizning bir boʻlagi boʻlgan, otabobolarimizdan meros boʻlib kelgan milliy musiqiy madaniyatimizga suyanish tabiiy bir holdir. Bularning barchasi barkamol avlod tarbiyasida, yoshlarning maʼnaviy dunyoqarashini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Anʼanaviy musiqa va qoʻshiqlarimiz odamlarni hamisha iymonga, mehr-oqibatga, odamiylikka chorlab kelgan. Bugungi kunda ham shu dolzarbligini yoʻqotmagan holda mustaqillikka, mehnatkashlar ongini shakllantirish yoʻlida, barkamol avlod tarbiyasida vosita sifatida asosiy omillardan boʻlib qolaveradi. Musiqa sanʼatining kasbiylik anʼanalarida yuzaga kelgan mumtoz namunalar, xalq marosimlari jarayonida yaratilib kelingan kuy va qoʻshiqlar oʻziga xos anʼanalar asosida zamonlar osha yashab, rivojlanib kelmoqda. Cholgʻu ijrochiligi esa bir-biridan kelib chiqqan ikki qatlamga boʻlinadi. Birinchi qatlam – xalq musiqa ijodiyoti, yaʼni xalq tomonidan yaratilib kelingan folklor musiqasi. Ikkinchisi – musiqa ijrochiligi amaliyoti; meros boʻyicha muayyan bilimga ega boʻlgan shaxs, ijodiyoti natijasida yaratilgan mumtoz musiqiy asarlaridir. Cholgʻu ijrochiligi ijodiyotining eng yirik va mukammal shakli maqomot tizimiga kiruvchi asarlardir. Cholgʻu ijrochiligi amaliyotida shakllanib maqomot shakligacha rivojlangan janrlar, manbalarda amal, qavl, parda, nagʻma, ovoz, naqsh, peshrav, savt, chorzarb, kor, tarona kabi iboralarda tasvirlanib kelingan. Ushbu iboralarning amaliyoti va ijodiyoti xususida, tarixda bitilgan musiqiy risolalar, turli ilmiy va badiiy adabiyotlarda aks ettirilganligini qayd etish lozimdir. Cholgʻu ijrochiligi ijodi va umuman, musiqa sanʼatining turli yoʻnalishlari bilan bogʻliq masalalar, IX–XVII asrlarda yashab ijod etgan Al-Kindiy, Abu Abdulloh Al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Safiuddin Urmaviy, Abdulqodir Marogʻiy, Abdurahmon Jomiy, Zaynulobiddin Husayniy, Najmiddin Kavkabi, Darvish ali Changiy kabi allomalarning musiqa ilmiga bagʻishlangan risolalarida musiqa zamonasi kesimida bayon etilgan. Dutor dastlab XV asrda ilk bor tilga olinadi. Oʻz asrining musiqashunos allomasi Zaynulobiddin al-Husaymning “Qonuni ilmi va amali musiqiy” risolasida dator haqida maʼlumotlar zikr etilgan.

Risolada tasvirlangan cholgʻu soʻzi zamonaviy dutordan unchalik farq qilmaydi. Mavjud farqlarni esa, asosan datorlarning shakllanishida koʻrish mumkin. Xususan, cholgʻuni dasta qismi qisqaroq boʻlib, kosasi zamonaviy dutorga nisbatan kattaroq (ud somning kosasidan kichikroq) boʻlganligi qayd etilgan.

Dutor va uning tarixi, yaratilishi jarayoni, ommalashish davrlari xususida ham qator rivoyatlar mavjud. Sharqning buyuk allomasi Fisag'ursning ilk cholg'uni yaratishga turtki bo'lgan rivoyatini musiqashunos olim I.Rajabov "Maqomlar masalasiga doir" risolasida keltiradi<sup>1</sup>.

"Bir kuni Fisag'ursning tushida bir mo'ysafid uning boshiga kelib shunday deydi: "Sen ertaga barvaqt turib, kaddof (paxta tituvchi)lar bozoriga borgil. U yerda

senga hikmat sirlaridan biri namoyon bo'ladi". Fisag'urs ertalab kaddoflar rastasiga boribdi va u yerda hech narsani tushunmay qaytib kelibdi. Mo'ysafid shu kuni kechasi tushiga yana kirib, kecha aytgan gapini takrorlabdi. Fisag'urs uyg'onib, ikkinchi marta bozorga borganida, paxta tituvchilar yoyining ipidan chiqayotgan tovush uning diqqatini jalb etibdi. Fisag'ursning ko'ngliga bir fikr kelibdi va u yerda yotgan Ot dumining tolasini olib, bir uchini tishlab, ikkinchi uchini qo'li bilan tortib turib chertgan ekan, mayin va yoqimli bir ovoz eshilibdi. Keyinchalik Fisag'urs qilni ipak ipga almashtiribdi. So'ng, shu ipni taqib chalinadigan torli cholg'u asbobi yaratish ustida mulohaza yurita boshlabdi. Kunlarning birida Fisag'urs hakim tog' tomon yo'l olibdi. Tog'ning etagida kuchli shamol esib, qandaydir hushtak ovozi eshilibdi. U yoq bu yoqqa qarab, ichi kavak bo'lib, bo'shab qolgan toshbaqa kosasiga ko'zi tushibdi. Uning bosh, qo'l, oyoq, dumi chiqib turadigan teshiklaridan o'tayotgan shamol shunday tovush hosil qilayotganligini anglabdi. "Bir narsaga yarab qolar", deb uni yerdan olibdi. Keyinroq toshbaqa kosasidagi eng katta teshikka (toshbaqaning boshi chiqib turadigan yerga) dasta o'rnatibdi va unga ip taqib, chala boshlabdi. Bu towsh chiqaruvclli asbob dastlab juda sodda va oddiy bo'lgan ekan. Insonlar uni o'zaro "barbat" deya atay boshlashgan.

Yana bir shunday rivoyatda dutor haqida ham so'zlangan ekan "Tunda Aflotun shogirdlaridan pinhona o'z hujrasida bir cholg'u sozini yasayotgan vaqtida, uni qanday soz yasayotganini o'rganib olish uchun shogirdi Arastu ohista tuynukdan mo'ralaydi ammo unga cholg'u ko'rinmaydi shunda u cholg'uni devorga sham nuridan tushayotgan soyasidagi shaklga qarab, tonggacha u ham pinhona bir musiqiy cholg'uni yasashga kirishadi. Tongda Arastu yasagan cholg'usini ustoz Aflotunga olib borganda shu narsa ma'lum bo'ladiki tunda Aflotun kosasi katta dastasi ingichka cholg'u yasagan bo'ladi Arastu esa aksincha soyada ko'ziga dastasi yo'g'on, kosasi kichkina ko'ringan shakldagi cholg'uni yasagan bo'ladi. Shundan Aflotun yasagan ingichka dasta katta kosali cholg'u -Dutor, Arastu, uni soyasidan qarab yasagan kosasi kichik, dastasi yo'g'on cholg'u esa Tanbur bo'lib qolgan ekan.

Dutor Markaziy Osiyoning o'zbek, tojik, turkman va uyg'ur xalqlari orasida keng tarqalgan cholg'ulardan biridir. O'lkamizning musiqa sozlari orasida dutor o'zining mayin, xonaki tovushi bilan alohida ajralib turadi. Ayni paytda bizning Respublikamizda dutor ijrochiligi to'rt asosiy lokal uslubga bo'linadi. Bular: Xorazm, Samarqand—Buxoro, Qashqadaryo-Surxondaryo va Farg'ona- Toshkent uslublaridir. Bu uslublar ichida Xorazm va Farg'ona-Toshkent mahalliy yo'llari alohida ajralib turadi. Nafaqat folklor va klassik san'atida, balki ijrochilikda shu vohalar cholg'u sozining tuzilishi va ijro etilishida o'ziga xos xususiyatlar bilan bir biridan farq qiladi.

Vohalar ijro uslublarining takomillashib borishi natijasida dutor ijrochiligida turli maktablar vujudga keldi. Bu ijro maktablari vohalarining o'ziga xos an'analari, shevalari va urf-odatlar bilan uyg'unlashib ketgan. Bu, avvalo, cholg'u sozi ko'rinishida gavdalandi.

<sup>1</sup>Ishoq Rajabov Maqomlar masalasiga doir T.: 1963.

O'zbek musiqa san'atida yorqin iz qoldirgan buyuk Ustozlar o'z ijodlarida maqomlar ohangidan va qonuniyatlaridan unumli foydalanib kelishlari an'ana tusiga kirib qolgan. Har bir sozanda o'z ijodida maqomlar va xalq musiqasiga murojat etar ekan uning nomi abadiyatga muhrlanib qoladi. O'tmishda o'tgan ustoz san'atkorlarning qilgan ishlari va davrlar o'rtasida e'zozlanib kelayotgan siymolari bunga yorqin misol bo'la oladi. Quvonarlisi shuki, bugungi kunda ham ushbu an'ana davom etmoqda. Nafaqat mumtoz yo'nalish, balki, milliy estrada bo'ladimi yoki zamoniv yo'nalishdagi musiqa bo'ladimi undagi milliy ohanglar shubhasiz qaysidir Ustozlarning ijro maktablari ta'sirida yaralgandir. Hozirda yurtimizda milliy musiqaga va ayniqsa maqom san'atiga bo'lgan e'tibor ushbu an'analarni kelajak avlodga yetib borishida ulkan natijalar berishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati institutining ochilishi va unda maqom cholg'u ijrochiligi kafedrasining tashkil etilishi bunga misol bo'la oladi.

Ushbu kafedra uzoq yillardan beri ustoz shogird an'anasi bilan bog'liq holda yosh avlodga musiqiy me'rosimizni o'rgatish ishlarini qilib kelmoqda. Hozirda kafedrada taniqli san'at ustalari, professor, dotsent lavozimidagi malakali ustozlar maqom cholg'u ijrochiligi fanidan saboq berib kelmoqdalar. Xususan dutor cholg'usi bo'yicha O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, professor Malika Ziyayeva, dotsent Iqbolxon Toshpo'latova, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, dotsent Ilyos Arabov, katta o'qituvchi Go'zal Mo'minova, katta o'qituvchi Farangiz Mahmudovalar dars berib kelmoqdalar. Dars rejalari bo'yicha talabalarga Shashmaqom, Toshkent-Farg'ona maqom yo'llari, Xorazm maqomlari, xalq va bastakorlar asarlaridan o'rgatib boriladi. Shu bilan birga dutor cholg'usi ijrochiligida o'z maktabini yaratgan Ustozlarning ham uslublaridan foydalaniladi. Ular ijro etgan kuylar kafedra pedagoglari tomonidan o'quv qo'llanma yoki darsliklar uchun maxsus notalashtirib olish ishlari keng yo'lga qo'yilgan. Ustozlardan Faxriddin Sodiqov, , Zokirjon Obidov, Mahmud Yunusov, Orif Qosimov, Turg'un Alimatov va boshqalarning ijro yo'llarini o'quv dasturlariga kiritib borish, ulardan talabaning imkoniyatiga qarab vazifalar, yuklamalr ajratiladi. Ammo, so'nggi davrlarda ba'zi ustozlarning dutor ijrochiligi maktablari musiqashunoslik va ilmiy izlanishlar nazaridan biroz chetda qolmoqda. Mana shunday masalalarga ozgina bo'lsada e'tibor niyatida ushbu maqolamizda O'zbekiston xalq artisti, "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni sohibi, Ustoz sozanda Turg'un Alimatov ijrochilik maktabining bugungi maqom ijrochiligidagi o'rni va ta'siri haqida so'z yuritmoqchimiz.

Turg'un Alimatov o'z ijro yo'li bilan XX asr O'zbek musiqa san'atida yorqin iz qoldirgan, dutor, tanbur, sato cholg'ularida o'ziga xos, betakror yo'l yarata olgan buyuk san'atkor, buyuk shaxsdir. Turg'un Alimatov asosan tanburchi sozanda sifatida ko'p ta'riflab kelinsada, uning tanbur cholg'usidan tashqari sato va xususan dutor cholg'usidagi ijro yo'llari alohida maktab desak mubolag'a bo'lmaydi. Maqolamizda ko'tarilayotgan mavzu dolzarb ekanligi o'laroq kelgusida bu yo'lda qilinadigan ilmiy izlanishlarga bir kichik turtki bo'lishini umid qilib qolamiz.

Turg'un Alimatovning dutor ijrochiligi va uning bugungi yosh maqom ijrochilari uchun tutgan o'rni haqida yozar ekanmiz quyida bu xususida Ustozning farzandlari Alisher Alimatov va nabiralari Abror Zufarov bilan bo'lgan suhbatlardan tuzilgan ma'lumotlarni keltirib o'tmoqni niyat qildik.

Turg'un Alimatov 1922 yil 20 yanvar kuni, Toshkent yaqinidagi Chuvalachi qishlog'ida tavallud topgan. Otasi Alimuhammad choyxonachi bo'lib, musiqani, san'atni shaydosi edi. O'zi

ham dutorni yaxshi chertar, ulfatlari, musiqa shinavandalari choyxonaga yig'ilgan paytlarda u qo'lga dutorini olib o'zi yahshi ko'rgan kuylardan ijro qilib berardi. Aynan shuning uchun ham uning choyxonasidan odam arimasdi. Shinavandalar ataylab dutor eshitgani va ulfatchilik qilgani Alimuhammad choyxonasiga borishar edi. Ana shunday davralarda bolaligi o'tgan Turg'un ham otasining yonida uning ijrosidan, shinavandalarning she'ru-g'azal, musiqa ustidagi qizg'in baxslaridan zavqlanib yurgan va besh olti yosh bo'lishiga qaramay o'zi ham dutor chalishni mashq qila boshlagan edi. Turg'unning otasi Alimuhammad o'sha davrning peshqadam tadbirkorlaridan edi. Uning bir nechta choyxonalari bo'lib, biri shaharda yana biri shahar tashqarisida joylashgan edi. Choyxonalarda keldi-ketdi juda ko'p, ishlari yurib ketgan Alimuhammadning o'g'li Turg'un, uning yonida dastyorlik qilar, barcha yumushlarga qarashar, otasining ishlariga, dutor chalishlariga havas qilib, zavqlanib kunlari o'tar edi. Ammo, bu kunlar afsus, uzoq davom etmadi. Turg'un 13 yoshga to'lganda otasidan ayrilib qoldi. Yosh Turg'unning boshida yetimlikning beshavqat kunlari boshlandi. Uning onasi va singillarini tog'asi o'z qaramog'iga oldi. O'spirin yigit bo'lib qolgan Turg'un esa tog'anikida yashashni ep ko'rmay o'zi o'qiyotgan maktabida yotib qolib o'qib yuradi. O'qishdan bo'sh vaqtida bozorda suv sotib tirikchilik qiladi. Yettinchi sinfni tugatgandan so'ng Eski shahardagi «Pedrabfak» (Pedagogika fakulteti) texnikumida o'qishni davom ettiradi. Bu yerda musiqa to'garagi bo'lgani uchun u o'zining sevimli do'sti - dutor bilan yanada yaqinroq bo'la boshlaydi. Chunki, uning uchun bu dunyoda dardlashadigani endi faqat dutor va kitob edi.

Keyinchalik, Turg'un Alimatov otasining choyxonasi haqida eslaganda o'sha davrlarda choyxonamizga ko'plab shinavandalar qatorida mashhur yozuvchi Abdulla Qodiriy ham tashrif buyurgan ekan, Otamiz Alimuhammadning dutordagi kuylariga u kishi ham muhlis bo'lib, choyxonamizda deyarli har kuni ijro etiladigan "Dutor navosi" kuyidan juda ta'sirlangan ekanlar. Abdulla Qodiriy mana shu manzara va holatni o'ta mohirlik bilan o'zlarining mashhur "O'tgan kunlar" asarlariga kiritib o'tganlar degandilar.

*...Dutorni sozlash uchun reza kuylardangina olib turgan mashshoq Otabek kutmagan joyda «Navo»dan boshlab yuborgan edi... Dutor tovshi qandaydir o'zining bir hasratini so'zlag'andek, hikoya qilg'andek bo'lib eshitar edi. Yo'q, bu hasratni ul o'z tilidan so'zlamas edi – Otabek tilidan so'zlar edi... Otabekning ko'z o'ngidan o'tkan kunlari birma-bir o'tib boshladilar-da, nihoyat «anuv» xotiralari, «anuv» hangomalari ham ko'rinish berib o'tdilar... Yo'q o'tmadilar... Uning ko'z o'ngida kelib to'xtadilar-da, shu ko'yi turaberdilar... Dutor bu fojiraga o'zi ham chidab turolmag'andek yig'liy boshladi... Dutor quruqqina yig'lamas edi, balki butun koinotni zirr etdirib va xasta yuraklarni dirr silkitib yig'lar edi...*

*Abdulla Qodiriy, "O'tkan kunlar"*

Keyinchalik T.Alimatov ushbu "Dutor navosi" kuyini juda yetuk darajada ijro qilib, radio fondiga yozdirib qoldirdi. U shuningdek dutorda qator xalq va bastakorlar ijodiga mansub kuylardan: "Tanovar I - II", "Eshvoy", "Kurt", "Jigarpora", "Ajam", "Adolat tanovari", "Qo'qoncha", "Girya", "Nasri segoh", "Chorgoh" va yana ko'plab asarlarni betakror uslubda ijro qilib qoldirdi. Bundan tashqari T.Alimatov ijodida turli cholg'ularni ustma - ust yozish tajribalarini ham kuzatishimiz mumkin. Bunday, bir sozandaning bir vaqtda bir nechta cholg'ularni ustma ust ijro etib, ansambl shaklida ovoz yozdirishi o'sha vaqtda juda ham murakkab ish edi. Turg'un Alimatov esa o'zining mohirligi va tanbur, sato, dutor, skripka kabi cholg'ularda a'lo darajada ijro etishi bu ishda unga O'zbek musiqa san'atida ilk ana shunday tajriba qilgan sozanda e'tirofini berdi. Agar ahamiyat berib tinglasak, yoki nota yozuvlari orqali tadqiq etsak,

T.Alimatov bir asarni turli cholg'ularda bir hil hil qilib emas, balki har bir cholg'uni o'ziga xos, alohida maktab yo'lida ijro etishga erishgan. Quyida Ustozning ijrolaridagi, kompozitor Doni Zokirov qalamiga mansub "Ey sabo" kuyini tanbur, dutor, sato cholg'ularida yondosh ijro uslubida yozdirilgan variantining bir parchasini nota misolida ko'rishingiz mumkin:

## EY SABO

D.Zokirov musiqasi

m.m.=88

Tanbur

Dutor

Sato

5

Turg'un Alimatovning dutor ijrochiligi yo'lini maktab deb atashimizni yana bir boisi bor. Agar tarixga nazar soladigan bo'lsak, har bir buyuk sozanda avvalo o'zidan hech kimnikiga o'xshamas ijro yo'li, noyob asarlar va albatta shogirdlar qoldirar ekan. Tarix esa ana shunday arboblarni o'z maktabini yarata olgan daho sifatida e'tirof etar ekan. Turg'un Alimatovning tanbur, sato cholg'ulari bo'yicha shogirdlarini sanog'i juda ham ko'p, dutorchi shogirdlari ham undan oz emas. Undan tashqari kim bugungi kunda qo'lga dutor olib, shu kasbga oz bo'lsada muhabbat bildirsa aniq aytishimiz mumkinki, T.Alimatovning dutordagi "Tanovar"ini chalishni havas qilgan va sevib ijro ham qilgan. Ustoz dutorda "Shashmaqom" asarlaridan ijro qilgan audio yozuvlari mavjud emas, ammo xalq kuylarining eng sodda variantlarini ham ularning ijrolarida tinglasangiz ijro darajasi va asarga bo'lgan yondoshuv maqomlardek yuqoriligini his qilishingiz mumkin. Bugungi kunda Turg'un Alimatov izdoshlari, shog'irdlari tomonidan uning ijro yo'llaridagi asarlar o'rganib borilar ekan, ustoz ijro qilmagan ba'zi kuylar, yoki maqom asarlari ijro etilganda ham Turg'un Alimatovning uslublari qo'llanilayotganligini guvohi bo'lishimiz mumkin. Bundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, T.Alimatov ijro maktabi, xususan dutor ijro uslubi kelajak maqom cholg'u ijrochiligida o'rni va ahamiyati yuqori.

Bu yil mazkur buyuk san'atkor, Ustoz sozanda Turg'un Alimatov tavalludining 100 yilligi mamlakatimizda keng nishonlanish arafasida. O'zbekiston Respublikasi madaniyat vazirligi, O'zbek milliy maqom markazi, Y.Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti hamjihatligida ushbu sanani nishonlash borasida qator loyiha va takliflar ishlab chiqildi. Jumladan Respublika bo'ylab joylarda Turg'un Alimatovning 100 yilligiga bag'ishlangan xotira kechalari, ko'rik tanlovlar, ijodiy kechalar ilmiy- amaliy konferensiyalar o'tkazilishi rejalashtirilmoqda.

Xulosa shuki, benazir Ustoz Turg'un Alimatovning hayot yo'li, ijrochilik maktabi, shaxsi borasida biz kabi yosh izlanuvchilar oldida mas'uliyatli vazifalar talaygina. Kelgusida o'z bilimimiz va qiziqishimizni ana shunday buyuk Ustozlarning qilib o'tgan ishlarini o'rganish, ilm va amaliyot uchun tadbiq qilishga oqilona sarflashimiz lozimdir. Binobarin bizlarga berilayotgan bugungi ulkan shart-sharoit va imkoniyatlar shuni taqazo etmoqda.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. Abdurauf Fitrat "O'zbek klassik muzikasi va uning tarixi" T.:1993,
2. Is'hoq Rajabov Maqomlar masalasiga doir T.: 1963.
3. Otanazar Matyoqubov Maqomot T.: 2004.
4. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. I jild:-T.; 2000
5. Yunus RajabiY. Shashmaqom T., Adabsan'atnashr, 1972.
6. Ziyoyeva M. "Dutor" T.; 2008.
7. Qosimov R. "An'anaviy tanbur ijrochiligi" – T.; 2002.